



Bibish JO'RAYEVA,
Filologiya fanlari doktori
E-mail: bibishjo'rayeva@mail.ru
Hulkarbegim UBAYDOVA,
BuxDU magistranti
E-mail: hulkarbegimubaydova@gmail.com

Taqrizchi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) D. Tosheva

THE LINGUISTIC ASPECT OF THE CONTRADICTION

Abstract

An in-depth study of the linguistic aspect of contradiction is one of the important issues. Contradictions play an important role in expressing and proving opinions. For this reason, the study of oppositional units from a philological point of view never lose its relevance. Today, such phenomena as antonymy, antisemy, enontiosemia are noted as a linguistic expression of contradiction. The interrelationships and differences between them are being scientifically resolved. This article discusses the gradual study of events related to semantic conflict. The results of research in this area will be analyzed. A scientific conclusion is made on the linguistic aspect of the contradiction.

Key words: Opposition, contradiction, antonymy, antisemiya, enontiosemia, linguistic, affirmation – denial, semantics, linguistics, difference, philological.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПРОТИВОРЕЧИЯ

Аннотация

Углубленное изучение языкового аспекта противоречия является одним из важных вопросов. Противоречия играют важную роль в выражении и доказательстве мнений. По этой причине изучение оппозиционных единиц с филологической точки зрения никогда не теряет свою актуальность. Сегодня в качестве языкового выражения противоречия отмечают такие явления, как антонимия, антисемия, энонтиосемия. Взаимосвязи и различия между ними научно разрешаются. В данной статье рассматривается поэтапное изучение событий, связанных со смысловым конфликтом. Результаты исследований в этой области будут проанализированы. Делается научный вывод о языковом аспекте противоречия.

Ключевые слова: противоречие, противоречие, антонимия, антисемия, энонтиосемия, лингвистический, утверждение-отрицание, семантика, лингвистика, различие, филологический.

QARAMA-QARSHILIKNING LINGVISTIK ASPEKTI

Анотация

Qarama-qarshilikning lingvistik aspektini chuqur tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Fikrni ifodalashda, dalillashda ziddiyatning o'rnini beqiyos. Shu sababdan oppozitsiyada turuvchi birliklarni filologik nuqtayi nazardan o'rganish har qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bugungi kunda qarama-qarshilikning lingvistik ifodachisi sifatida antonimiya, antisemiya, enontiosemiya kabi hodisalar qayd etiladi. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va farqlar ilmiy jihatdan yechim topib bormoqda. Ushbu maqolada semantik qarama-qarshilik bilan bog'liq hodisalarning tadrijiy o'rganilishi borasida muloza yuritiladi. Mazkur sohadagi tadqiqot natijalari tahlilga tortiladi. Qarama-qarshilikning lingvistik aspekti yuzasidan ilmiy xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: qarama-qarshilik, ziddiyat, antonimiya, antisemiya, enontiosemiya, lingvistik, tasdiq – inkor, semantik, tilshunoslik, farqlilik, filologik.

- **Kirish (Introduction).** Qarama-qarshilik borliq asosini tashkil etadi va bu ijtimoiy hodisa bo'lmish tilda ham o'z ifodasini topadi. Masalaga bugungi kun tilshunosligi nuqtayi nazaridan yondashilsa, avvalo, "zid ma'nolik hodisasi" va "ziddiyat kategoriyasi" kabi bir-biridan farqlanuvchi ikki tushuncha mohiyatini anglab olishimiz lozim bo'ladi.

Qarama-qarshilik hodisasi lingvistikada, asosan, antonimiya nomi ostida beriladi"[1]. Formal tilshunoslikda "zid ma'nolilik hodisasi" va "antonimiya" terminlariga absolut sinonimlar sifatida qarab, birining o'rnida ikkinchisini bema'lol ishlatish mumkin", – deb hisoblanadi. Ammo aksariyat hodisalar qatori terminlarni milliy lashtirish yuqoridagi atamalar uchun ham mos kelmaydi. Qarama-qarshilik hodisasi antonimiyaga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi va antonimiya uning tarkibiy qismi sanaladi.

"Ziddiyat kategoriyasi" esa nafaqat lingvistik, balki mantiqiy, falsafiy, psixologik aspektda o'rganiladi. Shu ma'noda, mantiq, falsafa, psixologiya kabi qator fanlar uchun ham birdek taalluqli birlik sifatida kela oladi. Shunday ekan

mazkur masalaga turli aspektdan yondashuv zarur. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezident I. A. Karimov tomonidan: "... odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha kurashadi. Afsus bilan ta'kidlash lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq"[2], – deya ta'kidlanadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Garchi ziddiyat, xususan, qarama-qarshilik borasidagi fikrlar qadim davrlardan ma'lum bo'lsa-da, dunyo tilshunosligida ushbu masalaga sof ilmiy jihatdan yondashuv o'tgan asrning 15-20-yillariga borib taqaladi[3]. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilshunosligida antonimiya hodisasiga bag'ishlangan maxsus ishlar yuzaga kela boshladi [4].

Ingliz tilshunosligida antonimiya Dj. Layonz, A. Lerer, A. Kruz, V. Charlz, G. Miller, K. Felbaum, L. R. Xorn, S. Djons, M. L. Myorf11 singari tilshunoslar ishlarida tadqiq qilingan bo'lib, ularda, asosan, antonimiyaning turlari, boshqa

semantik kategoriyalar bilan munosabati; funksional, pragmatik hamda kontekstual jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, antonimiyaning turli tizimli tillarda chuqur o'rganilishi ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga, leksikografiya, lingvodidaktika va chog'ishtirma tilshunoslik sohalarining ham rivojlanishiga olib keldi[5].

O'zbek tilshunosligida esa XX asrning 50-yillardan e'tiboran antonimiyaga oid ayrim maqolalar e'lon qilina boshlandi[6]. 70-yillarga kelib ushbu masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borildi[7]. Mazkur tadqiqotlar milliy tilshunosligimizda, tom ma'nodagi, ulkan yutuq bo'ldi va zamonaviy lingvistika uchun tamal toshi vazifasini o'tadi. Ammo qator lingvistik masalalar kabi antonimiyaga hodisasi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham milliy til xususiyatlarini to'la inobatga olmaslik, rus tilshunosligi ta'sirining yaqqol ko'zga tashlanishi, masala mohiyatiga turli aspektlardan yondashuvning ozligi kabi holatlar uchraydi. Xususan, uzoq yillar davomida fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari antonim juftlik hosil qilish, qilmasligi munozarali masalalardan biri bo'lib kelgan. Ayrim manbalarda ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilsa, aksariyatida istinoli holatlar mavjudligi qayd etilgan. Jumladan, H.Jamolxonov tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida: "Bor va borma so'zlari ikkita leksema emas, balki bitta leksemaning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari, xolos. Demak, bunda antonimik juftlik yo'q"[8], – deb berilsa, A. Tursunov, U. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ham: "Oddiy inkorning o'zi hali antonimlik emas. Masalan, ayt – aytma; aytar – aytmas kabilar biri ikkinchisining inkori, lekin ularni o'zaro antonim deb bo'lmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki bir leksemaning ikki (bo'lishli va bo'lishsiz) shakli"[9], – deyiladi. Har ikki muallif ilmiy qarashlarida fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz, tasdiq va inkor shakllari antonimik juftlik hosil qila olmasligi borasidagi xulosa ilgari suriladi. 1977-yilda Razzoq Shukurov tomonidan e'lon qilingan "O'zbek tilida antonimlar" risolasida esa ularning struktural, leksik ma'no miqdoriga ko'ra turlari, so'zlarning antonimlik darajasini belgilashda mantiqiy markazning roli borasida o'rinli mulohaza yuritiladi. Shu bilan bir qatorda, kontekstual antonimlar hamda anchayin munozarali masalalardan sanalgan fe'lning bo'lishli va bo'lishsizlik shakllari ayrim o'rinlarda antonimik juftliklarni hosil qilishda ishtirok etishi mumkinligi borasida zamonaviy tilshunoslik yondashuvlariga zid deb topilgan fikrlar ham keltiriladi. Muallif fe'lning tasdiq – inkor shakllari antonimik juftlik hosil qila olmasligini rad etmagan holda mazkur masala yuzasidan istisnoli holat mavjud ekanligini ta'kidlab o'tadi hamda quyidagi ilmiy farazni ilgari suradi: "Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz formalari harakatnigina emas, balki harakat orqali predmet belgisini bildirganda, ularda antonimik xususiyat paydo bo'lishi mumkin"[10]. "Fe'lning pishgan – pishmagan kabi sifatli formalari shu tilda so'z holidayi sinonimiga ega bo'lganda va boshqa tilga sifat shaklidagi so'zlar bilan tarjima etilishi mumkin bo'lganda ularning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'zaro antonimik juftlik hosil qilishi mumkin"[11]. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilida mazkur fikr talablariga javob bera oluvchi so'zlar miqdori juda oz, bundan tashqari ayrim olingan til tadqiqida bosh mezon uning ichki imkoniyatlari bo'lmog'i lozim. Qiyosiy yondashuvni birlamchi o'ringa ko'tarish, til lisoniy tabiatiga yot bo'lgan unsurlarni lingvistikaga majburan singdirish noto'g'ri ekanligini davrning o'zi yana bir bor isbot etdi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** So'nggi yillarda milliy tilshunosligimizga yangi talqin metodlari kirib kela boshladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, lingvistik qarama-qarshilik va uning shakllari yuzasidan ham qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi.

Xususan, ziddiyat masalasi keng planda turkumlararo qarama-qarshilikka asoslangan antisemiya maqomi ostida Dildora Abdullayevaning nomzodlik ishida[12] tadqiq qilingan bo'lsa, leksik sahdagi yana bir ziddiyat turi – yagona til birligida yuzaga chiquvchi enantiosemiya hodisasi Yorqinjon Odilovning doktorlik dissertatsiyasida[13] yoritib berildi. Mazkur nazariyalar orqali kontekstual antonimlar hamda omoantonimlar (shakldosh antonimlar) xususidagi mavjud qarashlarga o'zgartirish kiritilib, ularni antonimiyaga sirasidan chiqarish hamda tamomila yangi hodisa – ziddiyat shakllari (antisemiya, enantiosemiya) deya e'tirof etish lozimligi g'oyasi ilgari surildi. Antisemiya munosabati o'zbek tilshunosligida Dildora Abdullayeva tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi darajasida o'rganilgan. Antonimlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur hodisa bir so'z turkumi doirasida yuzaga chiqishi borasida molohaza yuritilgan. Turli so'z turkumiga oid, har xil grammatik tuzilishga ega, struktur jihatdan farqli komponentlardan tashkil topgan juftliklar kontekstual antonimlar deb hisoblangan. Jumladan, Razzoq Shukurov muallifligidagi "O'zbek tilida antonimlar" risolasida: "Leksik antonimik juftlikning har bir komponenti bir xil so'z turkumida bo'ladi: katta – kichik (sifat), kelmoq – ketmoq (fe'l). Ammo ayrim kontekstlarda turli so'z turkumiga xos so'zlar ham qarama-qarshi ma'nolarda ishlatilishi, ya'ni kontekstual antonimlar turli so'z turkumlaridan ham hosil bo'lishi mumkin"[14], – deyiladi. Shavkat Rahmatullayev esa: "Sifat leksemaga fe'l leksemaning sifatli shakli antonim bo'ladi. Bunda sifatli shakli fe'l leksemaning bo'lishli shaklidan ham, bo'lishsiz shaklidan ham hosil qilingan bo'lishi mumkin: xom – pishgan; o'tkir – o'tmas kabi. Sifat leksema bilan ma'no munosabatiga kirishuvi oqibatida bunday sifatli shaklidagi fe'lning ma'nosida yangi mundarija yuzaga keladi, mustaqil leksemaga aylanadi. M: pishgan – pishmagan; o'tar – o'tmas kabi"[15], – deya ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, turli so'z turkumiga oid birliklarning antonimik munosabati borasidagi fikrlar turlicha. Aksariyat olimlar ularni kontekstual antonimlar sirasiga kiritisa, boshqalari istisnoli holat mavjud ekanini aytib o'tadi. Bu kabi izoh talab masalalar Dildora Abdullayevaning ilmiy tadqiqot ishida o'z yechimini topdi. Mazkur tadqiqotda kontekstual antonimlar borasidagi mavjud qarashlar yanada mukammallashtirilib, semantik qarama-qarshilik markaziy planga olib chiqildi. Bu orqali tamomila yangi – antisemiya hodisasi vujudga keldi. "Masalan: baland – past leksemalarining antonimik munosabatiga ularning semantik tarkibidagi qarama-qarshi semalar ("vertikal jihatdan o'lchami yuqori" – "vertikal jihatdan o'lchami quyi") asos bo'lgan. Ushbu juftlik antonimiyaning mavjud mezonlariga to'la javob beradi. Lekin ayni shu qarama-qarshi semalar baland – pasaymoq, baland – pastlik leksemalari o'rtasida ham mavjud. Bunday juftliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan: katta – kichraymoq, oq – qoraymoq, yomon – yaxshilik, uzun – qisqarmoq kabi. Ushbu leksik birliklar lisoniy ifodalovchi sifatida qarama-qarshilikka xos bo'lgan har qanday xususiyatlarni o'zida ifodalay oladi. Ularda ham antonimlarga xos bo'lgan mantiqiy, psixologik, leksik, kommunikativ tomonlar mujassamlashgan. Shunga ko'ra, lingvistik qarama-qarshilikning faqat antonimiyaga mezonlari asosida belgilanishi hodisa mohiyatini to'liq ochishga imkon bermaydi. Demak, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilik munosabatini faqat antonimiyaga doirasidagina emas, balki undan tashqarida ham tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday keng doiradagi hodisani biz antisemiya (yunoncha anti – "zid", sema – "belgi") nomi ostida o'rganishni lozim topdik"[16], – deydi muallif.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Yuqoridagidan kelib chiqib aytish mumkinki, "antisemiya" tilshunoslik sohasi uchun mutlaqo yangi atama bo'lib, dunyo tilshunosligida uning muqobili sifatida "binomial juftlik"

termini qo'llaniladi. Ammo mazkur tushunchaning qamrov doirasi yanada kengroq. Uning tarkibiga o'zaro oppozitsiyada turuvchi birliklar bilan bir qatorda assotsiativ xususiyatga ega bo'lgan har qanday birlik kiradi. Masalan, "non-sariyog', qozon-idishlar, yuqori – past, hayot – o'lim kabilar ingliz tilidagi qaytarib bo'lmaydigan binomiallar sanaladi"[17].

Dildora Abdullayeva antisemiya munosabatini antonimiyadan ko'ra keng qamrovli hodisa sifatida baholaydi. Uning fikricha, har bir antonimik juftlik asosida antisemiya yotadi, biroq har qanday antisemik munosabat antonimiyani (antonimiyaning belgilanish mezonlariga ko'ra) yuzaga keltirmaydi. Antonimiyani antisemiyaning yuqori bosqichi sifatida baholash joiz. Lingvistik ziddiyatning yana bir shakli "enantiosemiya" atamasi ilk bor chex olimi V. Shertsel tomonidan qo'llangan. Rus tilshunosligida: A. A. Novikov, Y. I. Gelbl, I. N. Gorelov, O. I. Smirnov, V. N. Proxorova, O. M. Sokolov, Y. P. Xodakova, A. A. Refermatskiy, E. A. Baladikina, O. S. Axmanovalar tomonidan enantiosemiya tushunchasiga ta'rif berilgan. K. Abel, O. G. Skvartsov, R. A. Budagov, I. Pyote, V. Y. Melikyan, V.N. Soller tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan[18]. O'zbek tilshunosligida esa mazkur hodisa S. Usmonov, B. Yusufov, N. Mahmudov kabi olimlarning ishlarida tadqiq qilingan[19]. Bir so'z o'z-o'ziga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi haqidagi ilmiy xulosani birinchi bo'lib S. Usmonov aytib o'tgan. Olim: "Antonim so'zlardagi ma'no zidligini aks ettiradigan tushuncha bo'lgani uchun, u bir so'z orqali ifodalanadimi, ko'p so'z orqali ifodalanadimi, bundan qat'iy nazar antonim deb qaralishi kerak"[20], – deydi. Bunda muallif birinchilardan bo'lib leksemaning shakliy emas, ma'noviy jihatiga e'tibor qaratadi, ya'ni ziddiyatni belgilashda semasiologik jihatning birlamchi ekanini ta'kidlaydi. "Tadqiqotchi o'z-o'ziga qarama-qarshi ma'noda ishlatiluvchi bir so'zni ham antonimlar qatoriga kiritadi. Ularni farqlash maqsadida turli so'zlar orqali ifodalanadigan so'zlarni noshakldosh antonimlar, bir so'z orqali ifodalanadiganlarini esa shakldosh (omoantonimlar) deb nomlaydi"[21]. A.Ishayev esa bu kabi hodisa turkiy til shevalarini turkiy bo'lmagan til shevalariga qiyos qilganda ham uchrashi mumkinligini aytib

o'tadi. "Jumladan, uyg'ur, oltoy, xakas tillaridagi aka so'zi, fin-ugor tillariga mansub bo'lgan Udmurt, mari va makosh tillaridagi aka so'zi bilan qarama-qarshi ma'no qutublariga ajraladigan shakldosh antonimlar (omoantonimlar)"[22], – deb hisoblaydi. Dunyo tilshunosligida azaldan bir so'z o'zaro zid ma'nolarda qo'llanilishi enantiosemiya hodisasi deb nomlanar edi. Milliy tilshunosligimizga mazkur atama 2011-yil Nozimaxon So'fixo'jaye va tomonidan magistrlik dissertatiyasi orqali olib kiritildi. Ushbu tadqiqotda tor doirada bo'lsa-da, leksik, frazeologik enantiosemiya; ularning emotsional xususiyatlari; mazkur hodisaning antonimiyadan farqi kabi masalalar yoritib berildi[23]. Ziddiyatning mazkur keng aspektga ega bo'lgan turi 2016-yilga kelib Yorqinjon Odilov tomonidan doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq etildi[24].

Mazkur ilmiy izlanish natijasida tilimiz imkoniyatlarining naqadar serqirra ekanligini yanada yorqinroq namoyon etuvchi enantiosemiya hodisasining mazmun-mohiyati to'la ochib berildi. Unga ko'ra: – leksik hamda frazeologik enantiosemiya lisoniy va nutqiy, nominativ va subyektiv – baholovchi, simmetrik va asimmetrik, lug'aviy va grammatik, sinxron va diaxron kabi mezonlarga ko'ra tasniflandi;

– enantiosemiyaning unga yondosh bo'lgan hodisalar: evfemiya, disfemiya, ironiya, antifrazis kabilarga munosabati o'rganildi; mazkur hodisaning yuzaga kelish omillari, leksik sathdagi o'rni xususida fikr yuritildi. Bundan tashqari, olim tomonidan mazkur birliklarni o'z ichiga olgan enantiosemik lug'at yaratildi[25].

-Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Qarama-qarshilik filologik jihatdan keng aspektga ega bo'lgan masala bo'lib, bu borada yana qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan[26].

Bundan kelib chiqib, aytish mumkinki, "zid ma'nolik hodisasi" va "ziddiyat kategoriyasi" tushunchalari qo'llanilish doirasining tor va kengligi jihatdan o'zaro farqlanadi; antonimiyasi, antisemiya hamda enantiosemiya hodisalarini semantik qarama-qarshilikni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva D. A. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. 10. 02. 01. – T., 2010. – 135 b. – 23 b.
2. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000. – 112 b. – 21 b.
3. Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b. – 3 b.
4. Введенская Л. А. Словарь антонимов русского языка. – Ростов-на-Дону: Ростов ун-т, 1971; В. М. Завьялова Антонимы (Пособие по лексике немецкого языка). – М.: Высшая школа, 1969; Л. А. Новиков Антонимия в русском языке: Семантический анализ противоположности в лексике. – М., 1973; Л. А. Новиков Антонимия в русском языке. – М., 1973; В. А. Иванова Антонимия в системе языка. – Киев: Штиинца, 1982; Н. Л. Соколова К проблеме определения и классификации антонимов и их стилистического использования: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., – 1977. – 69 с.;
5. Шмелев Д. Н. Современный русский язык: Лексика. – М., 1977; Е. Н. Миллер Антонимия в лексике и фразеологии (на материале немецкого и русского языков). – Алма-Ата: Наука, 1978; Е. Н. Миллер Природа лексической и фразеологической антонимии. – Саратов: Саратовский ун-т, 1990; М. М. Халиков Лексико-семантическая характеристика антонимических контекстов (на материале современного немецкого языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1983; Н. М. Меркурьева Антонимия сложных слов в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996;
6. Masharipova N. O. So'zlararo ma'noviy munosabatlarning struktural va funksional xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. ... fals. dok. (PhD) diss. avtoref. 10. 00. 06. – Urganch, 2021. – 170 b.
7. Mutallibov S. Antonim so'zlar. //Sovet maktabi. – T., 1955. № 4. S. Usmonov Antonimlar. //O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – T., 1958. №2.
8. Шукуров Р. Лексико-семантическая природа антонимов узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1973.
9. Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке : Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1973. R. Shukurov O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b. Sh. Raxmatullayev, N. Mamatov, R. Shukurov O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1980. – 230 b.
10. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – 260 b. – 172 b.
11. Tursunov A., Muxtorov U., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 1992. – 400 b. 80 b.
12. Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b. – 14 b.

13. Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b. – 14 b.
14. Abdullayeva D. A. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. 10. 02. 01. – T., 2010. – 135 b. – 23 b.
15. Odilov Y. R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. 10. 00. 01. – T., 2010. – 245 b.
16. Shukurov R. O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b – 56 b.
17. Tursunov A., Muxtorov U., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 1992. – 400 b. – 80 b.
18. Abdullayeva D. A. O'zbek tilida antisemiya: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. 10. 02. 01. – T., 2010. – 135 b. – 23 b. – 10 b.
19. <https://uz.wikijaa.ru>
20. Odilov Y. R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. 10. 00. 01. – T., 2010. – 245 b. – 7 b.
21. Odilov Y. R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. 10. 00. 01. – T., 2010. – 245 b. – 8 b.
22. Usmonov S. Antonimlar. //O'zbek tili va adabiyoti masalalari.– T., 1958. №2.– 35 b.
23. Shukurov O'zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977. – 153 b. –17 b.
24. A. Ishayev Shakldosh antonimlarga oid etyudlar. //O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1969. №1.– 16 b.
25. So'fixo'jayeva N. Hozirgi o'zbek adabiy tilida enantiosemiya hodisasi: Mag. diss. ... 5 A 220102 – Andijon, 2011. – 54 b.
26. Odilov Y. R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. 10. 00. 01. – T., 2010. – 245 b. Y. R. Odilov So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enantiosemik so'zlarining izohli lug'ati. Monografiya va lug'at. – T.: Akadernashr, 2014. Keldiyorova G. O'zbek badiiy nutqida antiteza: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 2000. N. O. Masharipova So'zlararo ma'noviy munosabatlarning struktural va funksional xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. ... fals. dok. (PhD) diss. avtoref. 10. 00. 06. – Urganch, 2021. – 170 b. M. Z. Qosimova O'zbek va ingliz tillarida baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi: Filol. fan. ... fals. dok. (PhD) diss. avtoref. 10. 00. 06. – Andijon, 2021. – 185 b. N. S. Sadinova Badiiy matnlarda kontrastning lingvopragmatik xususiyatlari (Anvar Obidjon, Usmon Azim, A'zam O'ktam asarlari misolida): Filol. fan. ... fals. dok. (PhD) diss. avtoref. 10. 00. 01. – T., 2021. – 49 b. Гулямова З. Р. Исследование стилистического приёма антитезы в английском и узбекском языках на основе концептуально-когнитивного инационально культурного параметров его функционирования: Автореф. дисс. ... док. (PhD) филол. наук. – T., – 2021. – 124 с.;